

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

“LISON UT-TAYR”DA MUALLIF KONSEPSIYASI TALQINI

Nurboy Jabborov

filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: jabborov-nurboy@rambler.ru

Annotatsiya: Maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida muallif konsepsiyasi masalasi tahlil etilgan. Dostonning har bir komponenti – muqaddimada ilgari surilgan irfoniy-estetik qarashlardan tortib, asosiy boblardagi talqinlargacha, ramz va obrazlarga yuklangan poetik mazmundan hikoyatlar mohiyatigacha yagona konsepsiyaga bo‘ysundirilgani haqidagi fikr ilmiy dalillangan.

Bundan tashqari, “Lison ut-tayr” asari, qushlar majoz vositasida fano konsepsiyasi badiiy talqin etilgani jihatidan alohida ahamiyatga ega ekani yuzasidan yangicha ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilgan. Qur’oni karimda Hudhud Sabo mamlakatining ayol hukmdori va tobelarining hidoyatga, to‘g‘ri yo‘lga kirishiga sababchi sifatida talqin etilgani, Alisher Navoiy va uning salafлари ham shuning uchun qushlarga yetakchilik uchun aynan Hudhudni tanlashgani ilmiy asoslangan. Bu hol buyuk mutafakkirning obraz tanlashda ham Qur’oni karimga tayanganidan dalolat berishi isbotlangan. Ma’rifat vodiysi tahlili misolida kamolot yo‘lidagi vodiylar nomlanishi Sharq islomiy-irfoniy adabiyoti mezonlariga tayanishi haqida ilmiy qarashlar bildirilgan.

Maqola so‘ngida tahlil natijalaridan ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: fano konsepsiyasi, komil inson, obraz, ramz, kamolot bosqichlari, ma’rifat, badiiy talqin.

Аннотация: В статье анализируется проблема авторской концепции в эпосе “Лисон ут-тайр” великого поэта и мыслителя Алишера Навои. Приводятся научные доказательства идеи о том, что каждый компонент эпоса – от духовно-эстетических взглядов, выдвинутых в предисловии, до интерпретаций в основных главах, от поэтического содержания, перенесённого на символы и образы, до сути историй - подчинены единой концепции.

Кроме того, были выдвинуты новые научно-теоретические взгляды на основании того, что «Лисон ут-тайр» имеет особое значение с точки зрения художественной интерпретации концепции фано с помощью аллегории птицы. Научно обосновано, что интерпретация священного Корана в качестве причины вступления женичины-правителя страны Худхуд Сабо на правильный путь и обретение независимости угнетённых, что Алишер Навои и его предшественники, следовательно, выбрали именно страну Худхуд для руководства птицами. Доказано, что это свидетельствует о том, что великий мыслитель основывался на священный Коран даже при выборе образа. В работе изложены научные взгляды на примере анализа Долины просвещения, присвоения названий долинам на пути совершенства, основывающегося на критериях исламско-духовной литературы Востока. В заключении статьи сделаны научно-теоретические обобщения по результатам анализа.

Ключевые слова: концепция фано, совершенный человек, образ, символ, этапы совершенства, просветление, художественная интерпретация.

Abstract: The article analyzes the issue of the author’s concept in the great poet Alisher Navoi’s epic “Lison ut-tayr”. It has been scientifically proven that every component of the epic is subordinated to a single concept - from the gnostic-aesthetic views presented in the introduction to the interpretations

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

in the main chapters, from the poetic content loaded on symbols and images to the essence of the stories.

In addition, new scientific-theoretical views were put forward regarding the fact that the epic “Lison ut-Tayr” is of particular importance in terms of artistic interpretation of the concept of fano through the metaphor of birds. It is scientifically based that Hudhud Sabo is interpreted in the Holy Qur’an as the cause of the female ruler and her subjects to enter the right path, therefore Alisher Navoi and his predecessors chose Hudhud to lead the birds. It is proven that this situation indicates that the great thinker relied on the Qur’an when choosing an image. In the work, on the example of the analysis of the valley of Enlightenment, scientific opinions are expressed that the naming of the valleys on the road to perfection is based on the criteria of Eastern Islamic-mystical literature.

At the end of the article, scientific-theoretical generalizations were made from the results of the analysis.

Key words: *perfect person, image, symbol, stages of maturity, enlightenment, artistic interpretation.*

Badiiy asarning kompozitsiyasi va syujetini, mazmun va shaklni, umuman, har bir obraz, ramz va poetik unurni yaxlit bir konsepsiya asosiga qurish – jahon estetik tafakkurining benazir namoyondasi Alisher Navoiy ijodining bosh xususiyati. Ulug‘ mutafakkir asarlaridagi biror so‘z yoki jumlagi tahrir kiritib bo‘lmaydi, fikr ifodasida biror g‘alizlik kuzatilmaydi. Buning asosi dostonni ijod etishda fasohat, balog‘at va bayon ilmlarining mukammal uyg‘unligiga erishilganida, deyish mumkin. “Lison ut-tayr” asari, jumladan, qushlar majoz vositasida fano konsepsiyasi badiiy talqin etilgani jihatidan alohida ahamiyatga ega.

Doston mana bunday baytlar bilan boshlanadi:

Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,

Tengri hamdi birla og‘oz aylagay.

Ulki maxluqot Xalloqidur ul,

Ondin o‘zga foniyu boqiydur ul [1,6].

Ushbu muqaddima baytlardan buyuk shoir asardan ko‘zlangan badiiy niyatni ifoda etyapti. *Jon qushining mantiqi roz aylashi* – ushbu istioraviy talqin asosida Qur’oni karimning “Naml” surasi 16-oyatidagi: “Va Sulaymon Dovudga voris bo‘ldi. U: «Ey odamlar, bizga qush tili o‘rgatildi va har bir narsadan berildi. Bu, albatta, ochiq-oydin fazldir», dedi” mazmunida kelgan xabarga va bir vaqtning o‘zida buyuk salafi Farididdin Attorning shu nomdagi asariga ishora etilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mazkur oyatdagi *عَلِّمْنَا مَنطِقَ الطَّيْرِ* (“ullimno mantiq-t-tayra”) jumlasini “...qush tili o‘rgatildi”, deb tarjima qilgan [7, 322]. Shunga ko‘ra, Shayx Farididdin Attor asari nomini Qur’oni karimdan olgani ayon bo‘ladi. Hazrat Navoiy esa o‘zagi “nutq” bo‘lgan “mantiq” so‘zi o‘rniga uning sinonimi “lison”ni olishni afzal bilgan. Yuqoridagi baytlarda buyuk shoir jon qushining yashirin sirlardan so‘zlab, barcha maxluqotning Yaratguvchisi bo‘lgan Tangriga hamd aytishini ta’kidlar ekan,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Haq taolo boqiy, barcha yaralmishlar esa foniy ekanini ohorli talqin etadi. Adabiyotshunos Sultonmurod Olimov fikricha: “Ana shu ikki baytni ushlab turgan tushunchalar aro bog‘liqlik asosida muvozanat hosil bo‘ladi: *jon – foniy, Tangri – boqiy*” [5,74].

Asar mohiyatida insonning yomon xulqdan, dunyo hirs-u havasidan poklanishi, o‘zlikdan fano bo‘lmoq vositasida Haqqa boqiy bo‘lishi bosqichlarini tasvirlash maqsadi turadi. Chunki Tangri taoloning insonni yaratishdan maqsadi ham uning kamolga erishmog‘i, mukammal axloq egasi bo‘lmog‘idir. Dostonning hamd qismida Alloh taologa maqtoV bitilar ekan, buyuk shoir Yaratganning ana shu sifatiga urg‘u beradi:

*Yer yuzin yomg‘ur suvi birla yudi,
Gardu chirki ul yumog‘din o‘ksudi [1,6].*

Ya’ni ushbu baytda Alloh taoloning irodasi bilan yomg‘ir suvi Yer yuzini yuvib, gard-u chirkdan tozalagani kabi inson o‘z qalbini shirk-u nifoqdan, bug‘z-u adovatdan poklashi zarurligiga ishora etilgan. Umuman, “Xamsa” dostonlarining hamd boblarida hazrat Navoiy Tangri taoloning sifatlarini vasf etar ekan, baytlar tagmatniga shaxs va jamiyat hodisalariga doir qarashlarini ham singdirib yuboradi. Jumladan, olam va odam yaralishining asosi bo‘lgan anosiri arba’a – to‘rt unsur timsolida inson hayoti kurashdan iboratligi, bu uning xilqatiga xos ekani teran hayot falsafasi bilan uyg‘unlikda yuksak badiiy talqin etiladi:

*Uylakim dushman yarotib o‘tqa suv,
Yelni ham tufroqqa aylab aduv.
Sun‘idin ko‘rgilki mundoq to‘rt zid,
Bo‘lub inson xilqatida muttahid [1,7].*

O‘t bilan suv o‘zaro g‘anim bo‘lgani singari shamol bilan tuproq ham bir-biriga yov – zinhor chiqisha olmaydi. Tangri taoloning hikmatini qarangki, biri ikkinchisiga mutlaqo zid bo‘lgan to‘rt unurni inson fitratida jam qilib qo‘ygan. Bu orqali buyuk shoir inson botinida kechadigan to‘lqinlar, aql bilan tuyg‘u, tavoze bilan nafs-u havo, sabr-u qanoat bilan hirs-u havas o‘rtasidagi kurashlar mohiyatini balog‘at va fasohat bilan talqin etadi. “Balog‘at hol taqozosiga mos ravishda... so‘zlamak va va yozmoq... Hol taqozosidan murod kalomning vaziyat, tinglovchi va mavzuga muvofiq bo‘lishi” [2, 44-45] ekani e’tiborga olinsa, yuqoridagi baytlar ana shu talabga to‘liq muvofiq kelishi ayon bo‘ladi.

Hazrat Navoiy ijodidagi asosiy xususiyatlardan biri muayyan konseptual masala talqini baytdan baytga o‘tgan sari teranlashib, takomillashib borishidir. Buyuk mutafakkir chuqur falsafiy fikrlarni javohirni rishtaga tergandek mantiqiy izchillikda

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

yangidan yangi obrazlarni, ohorli tamsillarni qo‘llash orqali ifoda etadi. Shunga ko‘ra, anosiri arba’aga doir yuqoridagi baytlarda aks etgan o‘zaro zid, lekin bir vujudda jam bo‘lishi taqozo qilinadigan unsurlarga doir qarashlar keyingi baytlarda avval insonning mukarramligi, keyin esa shaytonning mardudligi sabablari misolida davom ettirilgan. Barchasidan murod bitta – insonning fano maqomiga erishmog‘i. Chunki “Ishq ahlining murodi bo‘lgan fano martabasi Navoiyning ham maqsadi edi” [4, 69].

*Ofarinishdin qilib inson g‘araz,
Oni aylab xalq ichinda beevaz.*

*Ko‘nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra O‘zin pinhon qilib [1, 7].*

Ushbu baytlarda barcha yaralmishlardan murod inson ekani, uning beevaz – maqomi balandligi, Tangri taolo odamzod ko‘nglini ilm xazinasini qilib, O‘zini bu tilsim ichiga yashirgani teran poetik ifodasini topgan. Bu orqali inson ko‘ngli Haq taoloning nuri tajalli qiladigan mo‘tabar maskan ekani talqin qilingan. Keyingi baytlarda Iblisning qismati misolida inson o‘z ko‘nglini kibru havodan pok tutishi zarurligiga ishora qilingan:

*Ul sharaflar birla andoq peshi xayl -
Kim, ayon aylab takabbur sori mayl.*

*To abad mardudu mal’un aylabon,
Ibrati ofoqu gardun aylabon [1,9].*

Kimdir qaysidir qavmning peshi – yo‘lboshchisi bo‘lsa ham, takabburlikka mayl ko‘rsatsa, oxir-oqibat mardud-u mal’unlikka giriftor bo‘ladi, ya’ni rad etiladi, la’natga uchraydi. Iblisning taqdiri bu borada ofoq-u gardun – Yer yuziga ibrat. Hazrat Navoiy Iblis nomini zikr etmaydi. Lekin “To abad mardud-u mal’un aylabon” satri orqali bu obrazni ta’sirli suvratlantiradi.

*Bir ovuch tufrog‘din aylab paykari,
Odamiylik‘da ajoyib mazhari.
Ham qilib O‘z sirri birla ganji roz,
Ham xilofat birla aylab sarfaro [1,9].*

Hazrat Navoiy: “Bir ovuch tufrog‘din aylab paykari” satri orqali inson o‘zidagi go‘zal shakl-shamoyilga hamda odamiylikning mazhariga aylanishi Tangri taoloning ulug‘ inoyati ekanini aytadi. Bu orqali Yaratganning nazariga tushsa, arzimagan qora tuproq ham aziz-u mukarram bo‘lishi mumkinligiga ishora etadi. Bu hali hammasi

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

emas. Haq taolo odamzodni O‘zining sirlarni saqlovchi xazinaga va shuning barobarida, xalifa maqomiga yuksaltirdi.

*Bo‘ldi sarkashlikdin oning ofati,
Ajzu tufrog‘liq bu birning rofati [1,9].*

Sarkashlik – ilohiy amrga itoat etmaslik ofat keltirishi, Yaratganning oldida o‘zini ojiz his etish, tuproqday xokisor bo‘lish esa darajaning yuksalishiga bois bo‘lishi bilan bog‘liq mohiyat aks etgan ushbu baytda. “Sarkashlik” va “ajz-u tufrog‘liq” tazodi vositasida hazrat Navoiy ijod konsepsiyasining asosi bo‘lgan iymonsizlik va iymon tafovuti talqin qilingan.

“Lison uttayr” dostonida har bir obraz va ramz, ularning harakat trayektoriyasi to‘liq muallif konsepsiyasiga bo‘ysundirilgan. Buyuk shoir qushlar safari timsolida inson kamolotining ilm tasavvufiga asoslangan yetti bosqichi: talab, ishq, ma‘rifat, istig‘no, tavhid, hayrat hamda faqr-u fano mohiyatini yoritadi. Har bir vodiy ta‘rifi hamda ulardan keyin kelgan hikoyatlar doston umumsyujetining tarkibiy qismi bo‘lishi barobarida muayyan xronotop shaklini – makon va zamoni ifodalashi jihatidan muallif ijodiy niyatini poetik ifodalashga xizmat qilgan. “Asarda talqin etilgan fano va ungacha bo‘lgan bosqichlar, baqo va uning cheksizligi, dunyo hayotining avvali va oxiri haqidagi xronotop shakllari bu borada mavjud nazariy istilohlar, tushunchalar mazmuniga sezilarli darajada ta‘sir qiladi” [3, 109-110].

Qushlar yetakchiligiga Hudhud obrazining tanlanishi ham chuqur irfoniy-estetik asosga ega. “Lison ut-tayr” haqida alohida tadqiqotlar olib borgan Sharafiddin Sharipovning ta‘kidlashicha: “Hudhud obraziga Navoiyning falsafiy masalalarga oid qarashlarini ifoda etuvchi badiiy vosita sifatida qarash mumkin” [8, 32]. Ma‘lumki, bu obraz Qur‘oni karimning “Naml” surasidan olingan. Surada Sulaymon alayhissalom otasi Dovudga payg‘ambarga voris bo‘lib: “Ey odamlar, bizga qush tili o‘rgatildi”, degani haqidagi xabardan so‘ng qushlarni yig‘ganda Hudhud kechikib kelishi, uni jazolamoqchi bo‘lganda, hatto Allohning elchisi bilmaydigan xabarni aytishi, bu esa Sabo mamlakatining hukmdori Bilqis va uning tobelari to‘liq iymon keltirishi bilan yakun topgani zikr etilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mazkur bu va keyingi oyatlarni quyidagicha tafsir qilgan: “O‘sha Saba’ mamlakatiga podshoh bo‘lgan ayol va uning qavmi Allohga emas, quyoshga sajda qilayotgan ekan. Bu noto‘g‘ri yo‘l. Allohning Payg‘ambari Sulaymon alayhissalom ularning bu xatolarini tuzatishlari zarur. Shayton la‘nati ular qilayotgan gunoh amallarni o‘zlariga chiroyli ko‘rsatib qo‘yibdi. Agar shu hollarida yuraversalar, hidoyat topmaydilar... Saba’liklar anglab yetmagan haqiqatni Hudhudning bilishi hayvonlar naqadar iymonli ekanlarini ko‘rsatadi. Agar odamlar Sulaymon alayhissalom kabi ularning so‘zlarini

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tushunganlarida har doim ulardan pand-nasihati eshitib turarmidilar?... Shu gaplar bilan Hudhud o‘ta muhim xabarni aytib bo‘ldi. Sulaymon alayhissalom nima qilsinlar? Hudhudning bu gaplariga ishonsinlarmi yoki yo‘qmi? Aybini berkitish uchun Hudhud bu gaplarni o‘zidan to‘qimadimikan? Lekin bunchalik katta gapni o‘zidan to‘qishi ham qiyin. Yo‘q, Sulaymon alayhissalom nima qilishlarini Alloh u kishiga bergan ilm asosida yaxshi biladilar. U zot ana shu ilmga binoan tasarruf qildilar... Sulaymon alayhissalom Hudhudga, sening gaping asosida darhol bir hukm chiqarishga oshiqmaymiz, keltirgan xabaring rostmi yoki yolg‘on ekanini tekshirib ko‘ramiz, dedilar... Bu tadbir Sulaymon alayhissalomning o‘tkir ilmiy Payg‘ambar va tadbirkor podshoh ekanliklarini ko‘rsatib turibdi. Hozir u zot bir yo‘la ikki ishni qilmoqdalar: Hudhudning o‘zidan foydalanib, ham uning rostgo‘y yoki yolg‘onchiligini sinab ko‘rmoqdalar, ham Saba’ mamlakatiga maktub yubormoqdalar” [7, 326-327].

Ma‘lum bo‘ladiki, Qur‘oni karimda Hudhud – boshqalarning hidoyatga, Haq taolo belgilab bergan to‘g‘ri yo‘lga kirishiga sababchi sifatida talqin etilgan. Hazrat Navoiy va uning salafлари ham shuning uchun qushlarga yetakchilik uchun aynan Hudhudni tanlashgan. Bu hol buyuk mutafakkirning obraz tanlashda ham Qur‘oni karimga tayanganidan dalolat beradi.

Dostonda kamolot yo‘lidagi vodiylar nomlanishi ham Sharq islomiy-irfoniy adabiyoti mezonlariga asoslanadi. Jumladan, asarning maxsus boblaridan biri “Ma‘rifat vodiysining vasfi” deb nomlangan. Mazkur bob quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

*Ma‘rifat vodiysin ondin so‘ngra bil,
Dashti bepoyonlig‘in nazzora qil.
Kimki bu vodiyg‘a bo‘ldi muttasif,
Topti anda hollarni muxtalif.
Vodiyedur yuz tuman ming onda yo‘l,
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.
Ixtilofi juzv ila kull mundadur -
Kim, taraqqiyu tanazzul mundadur [1,13-14].*

Ma‘rifat vodiysini “dashti bepoyon”ga qiyoslagan hazrat Navoiy unda “hollar muxtalif” (*ixtilofli, birbiridan keskin farq qiluvchi* — N.A.) ekanini ta‘kidlar ekan, “Vodiyedur yuz tuman ming onda yo‘l” deya odamlarning ma‘rifiy darajasi turlicha bo‘lishiga ishora qiladi. Ulug‘ shoirning “juzv ila kull” — bo‘lak va butun, taraqqiy va tanazzul ixtilofi haqidagi fikrlari ham buni tasdiqlaydi. Ya‘ni Haq taolo ma‘rifatini anglaganlar bilan anglamaganlar ayni shu manzilda ajraladi. Ma‘rifat ahli kamolotning keyingi bosqichiga yuksalsa, jaholat ahli yo‘ldan adashganlar safidan joy oladi.

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Mazkur bob davomida bayon etilganidek, bu vodiya “yuz tuman rahrav”ni (yo‘lovchini) ko‘rish mumkinligi, pashsha ham, fil ham, Jibril ham yo‘lda yekani, Muso-yu Fir‘avn, Mahdi-yu Dajjol, Ahmad va Abu Jahl ham rahravligi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Buyuk shoir irfoniy-estetik konsepsiyasiga ko‘ra, shunday bo‘lgach: “Muxtalif bo‘lmay ne bo‘lsun munda ish”.

Ushbu mulohazalari tasdig‘i uchun hazrat Navoiy bir hadis mazmunini keltiradi:

Mundin aytibdur nabii rohbar -

Kim, ulusqa Haq sari bo‘lsa safar.

Istasang yo‘l kasratig‘a addu had,

Xalq anfosu bila teng bil adad. [1,14-15].

Ya‘ni Haqqa eltuvchi yo‘llar soni xaloyiqning nufusi bilan barobar. Boshqacha aytganda, ma‘rifati darajasiga ko‘ra, har bir odam o‘z yo‘lini to‘g‘ri deb biladi. Ular o‘rtasidagi ixtilofning sababi ham shunda. Tanlagan yo‘llari egri yoki to‘g‘ri, yaqin yoxud yiroq, ko‘pragi durd (quyqa), ozrog‘i sof bo‘lsa-da, aslida hammasining maqsadi, to‘g‘rirog‘i, da‘vosi bir – haqiqat.

Gar suluk atvorida tag‘yir edi,

Maqsadi lekin borining bir edi [1,15].

“Ma‘rifat vodiysining vasfi”dan keyin hazrat Navoiy bir hikoyat keltiradi. Unda yozilishicha, bir necha ko‘zi ojiz kimsa ma‘lum muddat musofirlik sababmi, asir tushibmi, Hindistonda bo‘ladi. Taqdir inoyati bilan o‘z yurtlariga qaytib kelganida bir kishi ulardan so‘raydi: “Filni ko‘rdilaringmi?” Ko‘rlar tasdiq ishorasini qiladi. Haligi kishi filni chindan ham ko‘rganingizga dalil keltiring, deydi.

Tabiiyki, ular filni ko‘rmagan, u haqda so‘rab ham olmagan edi. Ko‘rlarning har biri filning qaysi a‘zosini paypaslagan bo‘lsa, shungagina asoslanib javob bera ketadi. Oyoqlarini silab ko‘rgani fil bu — “sutun” desa, qornini paypaslab ko‘rgani “besutun” deya javob qiladi. Xartumini ushlab ko‘rgani filni ajdahoga, tishlariga qo‘li tekkani uni suyakka mengzaydi. Quyrug‘ini silagani ilonga, boshiga qo‘l urgani qiyaning tumshug‘iga, qulog‘ini ushlagani esa yelpig‘ichga qiyoslaydi.

Garchi ko‘rlarning so‘zi fil haqida emas, uning muayyan a‘zolari xususida ekanini bilsada, “pilbonlig‘ shevasida ustod” bo‘lgan hakimi komil ularning so‘zini rad etmaydi.

Dedi: “Har bir ulcha voqif erdilar,

Pil holidin nishone berdilar” [1,217].

Qissadan hissa shuki, ma‘rifatda komil bir maqomga erishmagan kishi bamisoli o‘sha ko‘rlarning holiga tushadi. O‘zi “ushlagani”nigina haq deb bilib, boshqalar bilan ixtilofga boradi, munozara qiladi. Yana bir muhim jihati, ma‘rifatni anglashda

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

adashgan kimsa keyingi – istig‘no hamda tavhid, hayrat va faqr-u fano vodiylariga o‘ta olmaydi. Dostonning asosi bo‘lgan fano konsepsiyasiga kelinsa, bu – hazrat Navoiy hayotiy va ijodiy tutumining asosini tashkil etadi. Qushlar sayridan ham, qush majoz vositasida inson kamoloti bosqichlarini tasvirlashdan ham ko‘zlangan bosh maqsad – fano. “Lekin shuni qayd etish kerakki, tasavvuf nazariyotchilarining ko‘pchiligi uchun fano oxirgi nuqta emas, fano ketidan... uning mantiqiy davomi bo‘lmish baqo (abadiylik) keladi: o‘zining vaqtinchalik omonati – “o‘zligi” yo‘qolganini bilgach, inson mutlaqlik dengiziga sho‘ng‘iydi, shu tariqa, ilohiy mohiyatning abadiyligi singari, o‘zi ham abadiy mavjud bo‘lishini aniq-ravshan his etadi. Bu o‘lmaslik tuyg‘usi, aniqki, solik erishgan eng oliy hol hisoblanadi” [2,38]. Hazrat Navoiy bu boradagi falsafiy-estetik qarashlarini “Faqr-u fano vodiysining adosi”, “Qushlarning fano vodiysining nihoyatidin baqo mulkidin nishon topmoqlari”, “Qushlarg‘a fano navmidlig‘ida Hudhudning irshodidin quvvat hosil bo‘lg‘oni”, “Qushlarning fano husulidin baqo vusulig‘a yetkoni” boblarida ifodalaydi.

Umuman, bu ilmiy muammoni bir maqola doirasida hal etish mushkul. Lekin shuni aytish mumkinki, “Lison ut-tayr” dostonining mohiyatida fano va baqo konsepsiyasi turadi. Ushbu adabiy-falsafiy kategoriyalarni doston kompozitsiyasi va syujeti, asardagi obraz va ramzlar, ijodkor badiiy niyati va estetik ideali singari muammolar kesimida kompleks tadqiq qilish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardandir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. / Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўққизинчи жилд. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.- 288 б.
2. Бертельс, Евгений. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1965. – 517 с.
3. Жўрақулов, Узок. “Лисон ут-тайр”да хронотоп шакллари. /Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Т.: Фафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 105-120.
4. Мамадалиева, Зухра. “Лисон ут-тайр” образлари: рамз ва мажоз олами. - Тошкент, 2021. – 126 б.
5. Олимов, Султонмурод. “Лисон ут-тайр”нинг қиёсий поэтикаси: синтез, назиравийлик ва таржимавийлик: филол. фан. д-ри дисс., - Самарқанд, 2023. – 278 б.
6. Рустамий, Алийбег. Сайланма. I жилд. Ҳазрат-и Навоий махзани. – Тошкент: Zilol buloq, 2022. – 466 б.
7. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2008. – 638 б.
8. Шарипов, Шарафиддин. “Лисон ут-тайр” дostonининг генезиси ва ғоявий-бadiий хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1982. – 96 б.